

9-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-1

I variant **Sana:** _____
Sinf _____ **O'quvchining F.I.SH.** _____

1. XVI asrda o'n minglab parijsliklarning vafot etishiga sabab bo'lgan voqeani aniqlang. (Bilish–2,5 ball)

- A) Buyuk dehqonlar urushining sodir bo'lishi
- B) diniy urushlar va vabo epidemiyasi
- C) chechak kasalligining tarqalishi
- D) Robespyer davrida qatag'onlarning avj olishi

2. Martin Lyuter haqida bildirilgan to'g'ri ma'lumotni belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) "95 tezislar" deb ataluvchi indulgentsiyalarga qarshi da'vat e'lon qilindi
- B) cherkovga qarshi tashviqoti uchun gulhanda yoqilgan
- C) "Duo o'qi va ishla!" shiori muallifi
- D) "Buyuk dehqonlar" urushi davrida Bril shahrini egalladi

3. Quyidagi qaysi davlat Livon urushi davomida tashkil etilgan? (Bilish–2,5 ball)

- A) Shvetsiya B) Rech Pospolitaya C) Astraxan D) Qazan

4. Angliya hukmdori Yelizaveta I davriga xos bo'lgan ma'lumotlarni belgilang. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Styuartlar sulolasi hokimiyatdan ketdi; 2. Mamlakatda Reformatsiya o'z nihoyasiga yetdi; 3. Absolyutizmning inqirozi kuchaydi; 4. Burjua inqilobi uchun iqtisodiy, siyosiy va g'oyaviy asoslar shakllandi; 5. Angliya "Dengizlar malikasi"ga aylandi; 6. Angliya "Dunyo ustaxonasi" deb atala boshlandi.

- A) 1, 3, 4 B) 2, 5, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga "ha" yoki "yo'q" deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Genrix IV davrida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Fransiya iqtisodiy pasayish davrini boshdan kechirdi		
2	Fransiyada dvoryanlar pozitsiyasini mustahkamlash uchun doimiy intilish Lyudovik XIV siyosatining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi		
3	Lyudovik XIV fikricha, san'at bitta maqsadga — uning sulolasini, avvalo, uning o'zini ulug'lashga xizmat qilishi lozim		
4	Fransiyada ichki bojxona chegaralari saqlanib qolgan bo'lib, bu umumiy bozorning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi		

- A) 1-yo'q, 2-yo'q, 3-ha, 4-ha B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
- C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q D) 1-ha, 2-ha, 3-yo'q, 4-yo'q

6. Quyidagi shaxslarni ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 4,5 ball)

1. Jorj Vashington; 2. Benjamin Franklin; 3. Kortez; 4. Fenimor Kuper.

a) AQSH poytaxti uning sharafiga nomlangan; b) asteklar poytaxtini juda tez egallab olgan; c) varrak yordamida chaqmoq elektr razryad ekanligini isbotlagan; d) "Chingachguk — ulkan ilon" asari muallifi.

- A) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
- C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) to‘g‘ri berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) Jon Key – bug‘ mashinasi – to‘qish jarayoni 2 marta tezlashdi
 B) Jeyms Xargrivs – mexanik urchuq – arzon va qurilishi juda sodda bo‘lganligi sababli tez tarqaldi
 C) Modсли – suv g‘ildiragi (charx) bilan harakatga keltiriladigan mashina – yuqori ish unumdorligi bilan ajralib turdi
 D) Jeyms Uatt – universal bug‘ mashinasi – kitob bosish jarayonini yanada soddalashtirdi

8. Hudud va unga xos ma‘lumot berilgan javoblarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Hudud	Ma‘lumot
1.	Yangi Zelandiya	Luis Torres tomonidan kashf etilgan hudud
2.	Avstraliya	Abel Tasman tomonidan kashf etilgan hudud
3.	Panama	Amerika qit‘asida yevropaliklar qurgan birinchi shahar
4.	Tinch okeani	Fernando Magellan tomonidan nom berilgan okean

- A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

9. Quyidagilardan “Chaqaloq ko‘targan Madonna” (a) va “Mona Liza” (b) asarlari haqidagi berilgan ma‘lumotlarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. Yorug‘lik va soyaning yumshoq oqimlarida ona o‘z go‘dagini bag‘riga bosib turibdi;
 2. Tomoshabinga tik boqib turibdi, lablarida sezilar-sezilmas tabassum mavjud;
 3. Oyoqyalang Bibi Maryam go‘yo bulutlarni bosmayotganday, o‘z qismatiga peshvoz chiqmoqda;
 4. Yirtiq kiyim va sochsiz bosh o‘tgan umr kulfatlaridan dalolat beradi.

- A) a-2, b-3 B) a-1, b-4 C) a-1, b-2 D) a-3, b-4

10. Quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosasi tog‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natija
1	Mikelanjelo Buonarroto tomonidan “David” haykali yaratildi	Haykal o‘zining balandligi va go‘zalligi bilan shu paytgacha yaratilgan barcha asarlarni ortda qoldirdi
2	Gollandiya va Zelandiya dengizchilari Bril shahrini egalladi	Shahzoda Villem van Oranye shimoliy hududlar hukmdori deb e‘lon qilindi
3	Vaska da Gama boshchiligidagi ekspeditsiya amalga oshirildi	Yer dumaloq ekanligi amalda isbotlandi

- A) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
 B) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
 C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
 D) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri

